

Elektromagnit maydon. Maksvell postulatları.

1. O'zgaruvchan tok zanjiriga induktiv g'altak ulangan. G'altakning aktiv qarshiligi juda Kichik. Kuchlanish va tok kuchi orasidagi faza farqi qanday? A) π . (B) $\pi/2$. C) $\pi/3$. D) $\pi/6$. E) 0.
2. Induktiv qarshilik ifodasini toping. A) $X=1/C\omega$. (B) $X=L\omega$. C) $R=pl/S$. D) $Z=\sqrt{(R^2+[(L\omega)]^2)}$.
3. O'zgaruvchan tok zanjiridagi g'altakning to'la qarshiligi qaysi formula bilan ifoalanadi? A) ωC . B) ωL C) $R=pl/S$. (D) $Z=\sqrt{(R^2+[(L\omega)]^2)}$. E) TJY.
4. Tok chastotasi 1000 Hz bo'lganda, induktivligi 0,1 H bo'lgan g'altakning reaktiv qarshiligi qanday bo'ladi (Ω)? (A) 628. B) 314. C) 62,8. D) 31,4. E) 10.
5. Chastotasi 100 Hz bo'lgan o'zgaruvchan tok zanjiriga ulangan induktivligi 2 H bo'lgan g'altakning qarshiligini aniqlang (Ω). A) 50. B) 200. C) 314. D) 628. (E) 1256.
6. O'zgaruvchan tok tarmog'iga ulangan, induktivligi 25 mH bo'lgan g'altakning qarshiligi necha omga teng? O'zgaruvchan tok chastotasi 400 Hz. A) 6,28. B) 16000. C) 16. (D) 62,8. E) 628.
7. Chastotasi 50 Hz bo'lgan o'zgaruvchan tok zanjiridagi induktivligi 0,1 H bo'lgan g'altakning induktiv qarshiligini aniqlang (Ω). A) 628. B) 62,8. C) 6,28. D) 314. (E) 31,4.
8. Agar o'zgaruvchan tokning chastotasi 2 marta ortsa, uning zanjiridagi induktiv g'altakning qarshiligi qanday o'zgaradi? (A) 2 marta ortadi. B) 2 marta kamayadi. C) o'zgarmaydi. D) 4 marta kamayadi. E) 4 marta ortadi.
9. O'zgaruvchan tok chastotasini 50 dan 400 Hz gacha oshirilsa, g'altakning induktiv qarshiligi qanday o'zgaradi? A) o'zgarmaydi B) 8 marta kamayadi. (C) 8 marta ortadi D) 16 marta ortadi.
10. Aktiv qarshiligi bo'lmagan g'altakdagi kuchlanish tebranishlarining amplitudasi o'zgarmagani holda chastotasi 2 marta oshsa, tok kuchining amplitudasi qanday o'zgaradi? A) 4 marta ortadi. B) 8 marta kamayadi. C) o'zgarmaydi. D) 2 marta ortadi. (E) 2 marta kamayadi.